

/// PART-12

Washington University in St. Louis
Danforth Campus



Central Eurasian Studies Society

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE

CONFERENCE ON INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

WASHINGTON

2021



Central Eurasian Studies Society



INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

**Part 12
NOVEMBER 2021
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

Washington, USA
25th NOVEMBER 2021

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM

| | |
|---|------------|
| Zarifa Mamedova Hakimjanovna KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI | 310 |
| Uliqov Ulug'xon Arslonxon o'g'li Yetmishboyev Shaxodbek Ma'murjon o'g'li YOSHALAR TARBIYASIDA KITO BXONLIK MADANIYATINING AHAMIYATI | 313 |
| Mamatqulova Gulzoda Xolmurodovna ISTE'MOLCHILARNI HUQUQLARINI HIMoya QILISH | 316 |
| Abdugurov Shohjaxon Muhammadqobul o'g'li Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li THE IMPORTANCE AND ROLE OF TRANSPORT IN EXPORT AND IMPORT | 319 |
| Урумбаева Айгуль Нагметовна ФЕНОМЕН ИГРУШКИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЕЁ ОТБОРА ДЛЯ ДЕТЕЙ | 323 |
| Naqberdiyeva Kamola Jahongir qizi THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CLASSIFICATION OF SUFFIXES IN THE UZBEK AND THE ENGLISH LANGUAGES | 328 |
| Холиков Азamat Қаҳрамонович КЎРИШИДА МУАММОСИ БЎЛГАН БИТИРУВЧИ ЁШЛАРНИ ЗАМОНАВИЙ КАСБ ХУНАРЛАРГА ЎРГАТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ | 334 |
| Худойбердиева Моҳира Муҳаммадиевна ЁШ ПЕДАГОГЛАРНИ МАҲОРАТИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ | 340 |
| Фахридин Толивов Худойбердиевич КЎРИШИДА МУАММОСИ БЎЛГАН ЎҚУВЧИЛАРДА ТАРИХИЙ ТАФАККURНИ ШАКЛЛАНИШИДА ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ | 344 |
| Norova Malika Alimboyeva Sabohat Maqsad qizi "KORRUPSIYANING TARIXIY ILDIZLARI VA HOZIRGI KUNDAGI KORINISHLARI" | 349 |
| Xodjaraxmanova Nazira Baxtiyar qizi THE ROLE OF FISCAL POLICY IN THE DEVELOPMENT OF THE STATE ECONOMY AND ITS IMPACT ON AGGREGATE DEMAND AND AGGREGATE SUPPLY | 353 |
| Yakubova Safiya Hamdamovna INGLIZ TILINI BOSHLANGICH SINFLARDA O'QITILISHNI TURLI YANGI METODLARI VA INGLIZ TILINI O'QITISHDA TALAFFUZNING AHAMIYATI | 359 |
| Safarov O'lmasbek Sultan o'g'li A. Q. Nurillayev HISTORY OF DEVELOPMENT OF ATHLETICS AND THE POSITIVE IMPACT ON HUMAN HEALTH | 362 |
| Бекназаров Алишер Жумабоевич Уралов Гайрат Илхомович ҒЎЗА ҚАТОР ОРАСИГА КИМЁВИЙ ИШЛОВ БЕРИШДА ПУРКАГИЧ ҲАВО ОҚИМИ ТЕЗЛИГИНИНИНГ АҲАМИЯТИ | 365 |
| Qodirov Saidqosim Po'latxon o'g'li FIZIKA, TEHNICA VA TIBBIY ASBOBOSOZLIKDAGI MUVAFFAQIYATLAR | 372 |
| Сотвоздиева Насиба Сохибжамол қизи ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ БЕРИШДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИ | 377 |
| Халиярова Гулноз Джумаевна ЭФФЕКТИВНОСТЬ МИНИИНВАЗИВНЫХ ХИРУРГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ ПРИ ТРУДНОДОСТУПНЫХ ЭХИНОКОККОВЫХ КИСТ ПЕЧЕНИ | 386 |

"KORRUPSIYANING TARIXIY ILDIZLARI VA HOZIRGI KUNDAGI KÒRINISHLARI"

Norova Malika

Buxoro davlat universiteti

o'qituvchisi

Alimboyeva Sabohat Maqsad qizi

Buxoro Davlat Universiteti

Tarix va madaniy meros fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiya uning kelib chiqish tarixi, sabablari va unga qarshi kurashishda xalqaro davlatlarning tajribasi va mamlakatimizda olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish haqida malumotlar bayon etilgan.

Kalit so`zlar: Korrupsiya, madaniyat, mentalitet, strategiya, qonun-qoidalar.

Jamiyatimizda korrupsiya har qanday mamlakatda va har qanday jamiyatda yuz beradi. Korrupsiya mamlakatning demokratiya va huquqiy ustuvorligi asoslariiga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi. Bu esa mamlakatning rivojlanishiga katta to'siq bo'lib, oxir-oqibat mamlakat tanazzuliga olib kelishi aniq. Korrupsiya (lotincha Corrumpere buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o`zlarining shaxsiy manfaatlarini ko`zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Qadim yunon faylasufi Aristotel ta'kidlaganidek: Hokimiyatga pul bilan erishgan odam undan daromad olishga intiladi. Korrupsiya – nihoyatda ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch, uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyyati organlariga ishonchi yo`qoladi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, jamiyatda ma'naviyat izdan chiqa boshlaydi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro`yxatini yana davom ettirish mumkin. Korrupsiya buzg`unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham insoniy jamiyat qadim zamonlardan boshlab unga qarshi kurashib keldi. Tarixiy ma'lumotlarga ko`ra, korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor miloddan avvalgi XXIV asrda Mesopotamiyaning Lagash degan shahar-davlatida boshlangan, lekin taassufki, barcha sa'y-harakatlar zoe ketgan. Keyingi zamonlarda ham korrupsiyaga qarshi qancha-qancha kurashlar yuz berdi, lekin ular besamar yakun topdi. Insoniyat tarixida korrupsiyani tugatish yo'llari

va huquqiy asoslari Hindistonda yaratildi. Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan —Artxashastra yoxud Siyosat ilmi kitobi davlatni boshqarish va xo`jalik yuritish mavzuiga bag`ishlangan bo`lib, o`sha davrning siyosiy va iqtisodiy qomusi sifatida dunyoga keldi. Bu asarga davlatni tuzish, boshqarish va uni rivojlantirishning huquqiy asoslari, deb qarash ham mumkin. Kitob muallifi sifatida brahman Kautile nomi (u Chanakya ismi bilan ham mashhur) zikr etiladi. —Artxashastraning 26-bo`limi korrupsiyaga bag`ishlangan. Bo`limda korrupsiya — o`zlashtirish iborasi orqali izohlanadi: —Shohning shaxsiy yoki boshqa mulklariga qo`l cho`zish o`zlashtirishdir. Bu holatda narxi yuqori bo`lgan buyumlarni o`zlashtirganlik uchun o`lim jazosini qo`llash, narxi o`rtacha bo`lgan buyumlarni o`zlashtirganlik uchun ularni undirib olish, narxi past bo`lgan mulklarni o`zlashtirganlik uchun ularni qaytarib olish jazolarini tayinlamoq lozim. —Artxashastrada poraxo`rlikning qirqta turi tasnif etiladi. Korrupsiyaning oldini olishga javobgar mansabdar shaxs vaqtı-vaqtı bilan xalq to`planadigan joylar vabozorlarda quyidagicha murojaat qilib turishi lozimligi aytiladi: — Biron bir boshliqdan zarar ko`rganlar bo`lsa, shu haqda bizga xabar bersinlar.

Har qanday madaniyat, harqanday davlatning kelib chiqish tarixi bo`lganiday korrupsiyaning ham kelib chiqish tarixiga ega. Biz korrupsiyaning kelib chiqish tarixiga diqqatni qaratsak, ayrim manbalarga suyanganda korrupsiyaning tarixiy o`zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol insoniyat jamiyatining daslabki davrlarida qabilada ma`lum mavqega ega bo`lish uchun qabila sardorlariga sovg`alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O`sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to`sinq ekanligi ko`rsatdi.

Tarixda birinchi bo`lib korrupsiyaga qarshi kurashgan davlat sifatida Shumer davlati tan olinadi. Biz mamlakatimiz rivojlanishida korrupsiya illatiga qarshi kurashishda, albatta, birinchi navbatda muammoning ildizini topib, uni yo`qotish zarur. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashishda korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o`rin egallaydi. Darhaqiqat ildizni izlashda, korrupsiya mamlakatda ildiz otishining sababi nimada? Insonlarni pora berishga yoki pora olishga nima majbur qilyabdi? Kabi savollarni ko`ndalang qo'ygan holda masalaga jiddiy yondashish zarur. Bizning xalq, mentalitetida bir insonga ishing tushib undan yordam sorasang, uni rozi qilish kerak degan tushuncha bor, rozi qilish bo`lsa albatda ma`lum bir moddiy sovg`a yoki pul hisobiga yechiladi, o`tmish

tarixga ham nazar solsak podsholarga, xonlarning oldiga ma'lum bir mavqega ega bo'lish uchun sovg'a-salomsiz borishmagan. Odatda hukmdorning muruvvatiga sazovar bo`lishi uchun odamlar o`zida bor eng aziz, eng qimmatli narsani yoki uni xursand qiladigan narsani: chunonchi, otlarni, qurol-yarog'larni, qimmatbaho mato yoki toshlar va hukmdorning ulug`vorligiga munosib boshqa ziynatlarni hadya qiladilar. Bunday munosabatlar balkim korrupsiyaning keng quloch yoyish sabablaridan birdir, buni Singapurning birinchi prezidenti Li Kuan Yuning o`z fuqarolari haqidagi o'y-fikrlarida ham ko`rish mumkin, Mamlakat aholisining aksariyati xitoyliklar, ularning madaniy me`yorlari amaldorlarga sovg`alarsiz murojaat qilishga imkon bermasdi. Vaqt kelib, shunday sovg`alarni mansabdor shaxslarning o`zi ham talab qila boshlashdi. Bu odat tusiga kirdi. Insonlarning korrupsiya qurbaniga aylanishiga ya`na bir sabab, maosh masalasi bo`lishi mumkin, insonlarning ish joyidagi maoshi ularning moddiy talablarini qanaotlantira olmasa, ya`ni uy-ro`zgor ishlarigaham yetmasa, albatta insonda qo'shimcha pul topish istagi o`z-o`zidan paydo bo`ladi. O`z maoshiga kun ko`rolmaydigan odamga hatto kichik bir vakolat berildimi, bu uning uchun mansabidan foydalanish taklifga aylanadi.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish, uni yo`qotish uchun xorijiy mamlakatlar tajriybasidan foydalanish ham o`z samarasini berishi mumkin. Hozirgi kunda dunyonining eng rivojalangan davlatlaridan biri bo`lgan Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi asoslari uchta muhim yo`nalishga qaratilgan, poraxo'rlarni davlat apparatidan chiqarib yuborish: davlat xizmatlarini maksimal darajada soddalashtirish, aniqlangan huquqbazarlik holatlari bo`yicha jazo choralarini kuchaytirish. Bizning mamlakatda ham korrupsiyaga qarshi kurashishda keyingi yillardagi islohotlar natijasi yuqoridagi uchta strategiyani uchratish mumkin. Masalan: O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Aholiga davlat xizmatlari ko`rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to`g`risida 2017-yil 12-dekabrdagi PF-5278-son Farmoni va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida 2017-yil 12-dekabrdagi Pq-3430-son qarori bilan takomilashtirilgan Yagona Darcha xizmati aholiga davla txizmatlarini ko`rsatishda soddalashtirilgan, ortiqcha ovaragarchiliklarnikamaytiradi. Yana bir misol, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi O`zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo`yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to`g`risidagi PF-6013-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, O`zbekiston

Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish tog`risidagi 4761-soni Prezident qarori bilan tashkilashtirilgan O`zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hozirgikundagi olib borayatgan ishlari so`zimizning isbotidir.

Mamlakatimizda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Uzreport bilan o`tkazilgan so`rovga ko`ra keyingi ikki yilda respondentlar tomonidan yurtimizda eng yuqori Oliy ta`limda 21%, Sog`liqni saqlashda 14%, ishga qabul qilishda 12%, Prokuratura va Ichki ishlarda 10% korrupsiya holatlariga duch kelishgan, 18% respondent bolsa oxirgi ikki yilda korrupsiya bilan bog`liq holatga duch kelmaganini aytishgan.

Xulosa o`rnida korrupsiyaga qarshi kurashishda mamlakatimizda davlat amaldorlari va ularning daromadlari korxona, muassasa oliy o`quvvurtlari dagi hisobotlari, ish jarayonlari rejadagi tekshiruvchilar emas, tasodifiy tekshiruvchilar o`tkazish maqsadga muvofiq. Shuni qo`shimcha qilish zarur, mansabdor shaxslarlarning maoshi yetarli darajada bo`lishi zarur. Lavozimli shaxslarga har qanday bajariladigan ish uchun minnatdorchilik tarqasida beriladigan sovg`a pora sifatida qabul qilinishi va unga qarshi nizomchilikda choralar ko`rsatilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- M.A.Raxmatov, B.Z.Zaripov. Istedodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir Li Kuan Yu hikmatlari. Toshkent-2019-yil.
- Vantsev V.A. Problema legalnogo opredeleniye poniyatiya korrupsiya Korrupsiya v Rossii. Informatsyonniyie I analitishiskiy materiali.- M.,2001.
- Nikkolo Makiavelli. Hukimdor. Toshkent; 2018-yil.